

UDK: 92/94+54

## O‘ZBEK MILLIY KULOLCHILIGIDA HANDASAVIY RAZMLARGA OID AYRIM MULOHAZALAR

**Ahrorbek A‘zamjonovich Azizov,**

O‘zRFA Tarix instituti katta ilmiy xodimi, t.f.f.d.

[aahazizov@gmail.com](mailto:aahazizov@gmail.com)

ORCID ID: 0000-0001-9951-7429

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada o‘zbek milliy kulolchiligida shakllangan bezak, ramzlarning geometrik shakldagi turi tahlil etilgan. Maqola tarixiy manbalar, devoriy suratlar hamda qadimiy e‘tiqodiy qarashlarga oid ma‘lumotlarni tahlilga tortgan. Shuningdek, bezaklarning o‘zbek kulolchiligida qadimdan qo‘llanish maqsadlari va vazifalari ham ochib berilgan. Bundan tashqari, milliy kulolchilikdagi bezak sifatida keltirilgan turli shakllarning shakllanish omillarini yoritib berishga harakat qilingan.*

*O‘zbek milliy kulolchiligida uchraydigan geometrik ramzlarning ma‘nolari, qanday usullar yordamida kulolchilik mahsulotlarida aks ettirilganligi jihatlari tadqiq etilgan. Ayniqsa, ma‘lum bir bezakning ramziy mazmuni bog‘liq bo‘lgan tabiat manbalari yoki birliklarining o‘zbek madaniyatidagi ahamiyati ochib berilgan. Bundan tashqari, qadimdan hozirgi kungacha saqlanib kelayotgan turli geometrik ramzlarning kulolchilikda qator o‘zgarishlarga uchrashi tahlil etilgan. Ma‘lumki, eng qadimgi davrlardan Turonda mavjud bo‘lgan bezaklarda e‘tiqodiy qarashlar va diniy tasavvurlardagi o‘zgarishlar o‘z aksini topgan. Ayniqsa, islom dini qaror topishi natijasidagi ramzlarda kechkan o‘zgarishlar keltirib o‘tilgan. Shuningdek, milliy bezaklar orasida geometrik shakllarning bugungi kundagi bezaklar majmuasi tarkibiy qismi yoki asosi sifatida qo‘llanishi xususiyatlari ko‘rsatib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Turon, Namozgoh, Jannat, uchburchak, Umay, doira, quyosh, Rishton, Xorazm, Sug‘d, Xumbuztepa.*

### НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ГЕОМЕТРИЧЕСКИХ СИМВОЛАХ В УЗБЕКСКОЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ КЕРАМИКЕ

**Азизов Ахрорбек Аъзамжонович,**

Кандидат наук (PhD), старший научный сотрудник,

Институт истории Академии наук Узбекистана

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье анализируются геометрические формы орнаментов и символов, встречающихся в узбекской национальной керамике. Анализируются*

*данные исторических источников, настенных росписей и древних религиозных верований. Раскрываются цели и функции древнего использования орнаментов в узбекской керамике. Кроме того, предпринимается попытка пролить свет на факторы, сформировавшие различные формы, представленные в качестве орнаментов в национальной керамике.*

*Изучаются значения геометрических символов, встречающихся в узбекской национальной керамике, и методы их отражения в керамических изделиях. В частности, раскрывается значение природных ресурсов или единиц в узбекской культуре, от которых зависит символическое значение того или иного орнамента. Также анализируются изменения различных геометрических символов, сохранившихся в керамике с древних времен до наших дней. Известно, что орнаменты, существующие в Туране с самых ранних времен, отражали изменения в религиозных верованиях и религиозных идеях. В частности, представлены поздние изменения символов в результате установления ислама. Также показаны особенности использования геометрических форм в национальных орнаментах как компонента или основы современного комплекса орнаментов.*

**Ключевые слова:** *Туран, Намазгах, Рай, треугольник, Умай, круг, солнце, Риштан, Харезм, Согд, Хумбуз-Тена.*

## **SOME THOUGHTS ON GEOMETRIC SYMBOLS OF UZBEK NATIONAL POTTERY**

**Azizov Akhrorbek Azamjonovich,**

PhD., Senior researcher fellow,

The Institute of History of the Academy of Sciences of Uzbekistan

### **ABSTRACT**

*This article analyzes the geometric forms of ornaments and symbols found in Uzbek national ceramics. It examines data from historical sources, wall paintings, and ancient religious beliefs. The purposes and functions of the ancient use of ornaments in Uzbek ceramics are revealed. Furthermore, an attempt is made to shed light on the factors that shaped the various forms represented as ornaments in national ceramics.*

*The article examines the meanings of geometric symbols found in Uzbek national ceramics and the methods of their reflection in ceramic pieces. Specifically, the significance of natural resources or units in Uzbek culture, which influence the symbolic meaning of a particular ornament, is explored. The article also analyzes*

*changes in various geometric symbols preserved in ceramics from ancient times to the present day. It is known that ornaments, existing in Turan from the earliest times, reflected changes in religious beliefs and ideas. In particular, later changes in symbols resulting from the establishment of Islam are presented. The features of the use of geometric forms in national ornaments as a component or basis of a modern complex of ornaments are also shown.*

**Key words:** *Turan, Namazgah, Paradise, triangle, Umai, circle, sun, Rishtan, Kharezmi, Sogd, Khumbuz-Tepa*

## **KIRISH**

O'zbek hunarmandchiligi, xususan, kulolchiligida qo'llanib kelingan bezaklar xilma-xil bo'lib, kelib chiqishi, shakllariga ko'ra bir necha guruhlariga tasniflanadi. Milliy hunarmandchilikda qo'llangan bezaklar handasaviy (geometrik), o'simliksimon (islamiy), hayvonlarga oid (zoomorf), inson shaklidagi (antropomorf), qismlar asosidagi butun shakl (abstratsiya) kabi turlarga bo'linadi. Ushbu bezaklar kulolchilikda muayyan maqsadlarda ramziy ma'no ifodasi sifatida yoki bezak tarzida chizilgan. Ayniqsa, geometrik ramzlar kulolchilik bezaklari ichida alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu bezak turlari eng qadimgi davrlarda vujudga kelgan bo'lib, tabiat birliklari, samo jismlari yoki qadimiy e'tiqodiy qarashlarni ifodalaydi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Maqolani shakllantirishda tarixiy manbalar, muammoga oid tadqiqotlar, san'atshunoslik na'munalari tahlil etishga harakat qilingan. Unga ko'ra, o'zbek madaniyatida saqlanib kelayotgan bezaklarni Umar Hayyomning "Navro'znoma" asari, qadimiy qoyatosh suratlari, Afrosiyob devoriy suratlari, xalq og'zaki ijodi na'munalari va dala tadqiqot natijalari kabi manbalar asosida tadqiq etilgan. Shuningdek, kulolchilikka bag'ishlangan qadimshunoslik izlanishlarini amalga oshirgan B. Litvinskiy, A. Asqarov, L. Albaum, M. Isomiddinov, Sh. Shaydullayev, S. Baratov, F. Razzoqov, san'atshunoslikka oid A. Hakimov, E. Gul, Y. Ofitserova, A. Morozova, M. Chebodayeva, hunarmandchilikka oid S. Davlatova, Sh. Abdullayeva, kulolchilik elshunosligi bo'yicha H. Xudoybergenov, S. Aliyeva kabi mualliflar tadqiqotlari jalb etilgan.

Milliy kulolchilik ramzlari tahlilini amalga oshirishda madaniy doiralar ta'siri, evrilish va tarqalish nazariyalari hamda qiyosiy tahlil, madaniy talqin tahlili usullari qo'llandi. Shuningdek, kulolchilikda keng tarqalgan geometrik bezaklarning evrilishi, bugungi kundagi mazmuni va qo'llanish maqsadlarini yuzasidan qisqa muddatli

madaniy antropologik kuzatuv usullari qo‘llangan hamda uning natijalari maqolada aks ettirilgan.

### **NATIJAR VA MUHOKAMA**

Ushbu bezak turlari eng qadimgi davrlarda shakllangan bo‘lib, turli ko‘rinishlarni namoyon etadi. Bunday shakllarga diora, aylanma qandil, uchburchak, romb, to‘g‘ri va to‘lqinli chiziqlar, koinot jismlarini ifodolovchi qirrali kabi bir qancha shakllar kiradi [1:32]. Bunday shakllar turli ko‘rinishlarda va ranglarda aks ettirib kelinadi. Kulolchilikda qo‘llangan har bir shaklning tub mazmuni mavjud bo‘lib, o‘zbek madaniyatida chuqur ildiz otgan tasavvurlarga borib taqaladi.

Handasaviy ramzlar ilk bezak turlaridan biri hisoblanib, Turon kulolchiligida o‘ziga xos ahamiyatga ega sanaladi. Bunday ramzlar yangi tosh davrida shakllangan bo‘lib, keyingi davrlarda ham rivojlanib borgan. Xususan, Namozgoh yodgorligidan topilgan sopol buyumlar sirtiga ishlangan bezaklar turkman gimlamdo‘zlik naqshlarini eslatadi [2:8] va handasaviy kulolchilik bezaklari ming yilliklar davomida boshqa hunarmandchilik sohalariga ham kirib borganligini ko‘rsatadi.

*Uchburchak* shaklli bezaklar insoniyatga tosh davridan beri ma‘lum bo‘lib, kulolchilikda bezak sifatida neolit davridan qo‘llab kelingan. Hozirgi kunda ham bezak tarzidagi ahamiyatini yo‘qotmagan va mazmunan boyigan hisoblanadi. Ushbu shaklning ilk mazmuni tabiatdagi mavjud manbalar, xususan, tog‘ni anglatgan [3:232]. Bundan tashqari, ushbu shakl ko‘plab xalqlarning madaniyatlarda moddiy dunyo (yer) hamda ruhlar olami (Jannat)ning o‘zaro aloqasini anglatgan [4:16]. Yoki davlat rahbarining muhri uchburchak shaklida bo‘lgan [5:56]. Uchburchak ramzi turli hududlarda qadimdan qo‘llab kelingan muhim shakllardan biri hisoblangan.

O‘zbek madaniyatida qo‘llanib kelgan bezaklar orasida uchburchak shakli alohida ahamiyatga ega. Uchburchak shakli turli ramziy mazmuni ifodalab kelgan. Xususan, uchburchakning uchi yuqoriga qaragan bo‘lsa u olov va erkaklikning ibtidosi, uchi pastga qaragan bo‘lsa g‘or, suv va tog‘lardan oshish, hosildorlik va ayollik ibtidosi hisoblangan. Agar shakl teng tomonli uchburchak bo‘lsa, ilohlar, uyg‘unlik va mutanosiblikni ifodalaga [6:266]. Ayniqsa, turkiylarda muhim ilohalardan biri bo‘lgan Umay ona tasviri bosh qismida uchburchak shaklli toj bilan tasvirlangan [7:20]. Demak, o‘zbek madaniyatida shakllangan ushbu shakl eng qadimgi ramzga aylangan va tabiat, inson hamda shomonlikdagi ilohlarga bog‘liq hisoblanadi.

Uchburchak shaklli ramz islom kirib kelishi bilan tumor ko‘rinishiga o‘zgargan va o‘zbek madaniyatidagi eng muhim bezaklardan biriga aylangan [8:54]. Hozirgi kungacha ushbu shakldagi ramzlar kulolchilikdan tashqari bir qancha hunarmandchilik sohalaridagi asosiy bezak shakllaridan biri sanaladi.

*Doira* shakli bugungi kungacha o‘zbek kulolchiligida ham shakl va ham bezak sifatida qo‘llanib kelingan eng asosiy bezaklardan biridir. Ushbu shakl eng qadimgi qoyatosh suratlaridagi turli chizgilar ko‘rinishi [9:244], turar joy [10:11], bosh kiyim [11:55 – 56] shakllanishida, shuningdek, turli bezaklarni aks ettirishda asos bo‘lib xizmat qilgan. Turli madaniyatlarda doira ko‘rinishidagi bezaklar bir qancha mazmuni anglatgan hamda qo‘llanib kelinmoqda. Unga ko‘ra, doira quyosh, oy, osmon [12:38], inson hayoti davomiyligi [13:27], o‘simlik [1:157], yoy [14:34] kabi bir qancha ma‘nolarni anglatgan. Xususan, qadimgi xalqlar tasavvurlariga ko‘ra jannatga kirish eshigi shakli ham doirasimon ekanligiga ishonch mavjud bo‘lgan [15:65].

O‘zbek kulolchiligida doira shaklli bezak ko‘plab qo‘llab kelingan va ushbu shakl asosini birinchi navbatda olam to‘g‘risidagi falsafiy qarashlar tashkil etgan. Ushbu shakl kulolchilikda markaz ma‘nosini anglatuvchi mazmunda ham qo‘llanib keladi. Shuningdek, doira shakli ichiga turli boshqa ramzlar chizib chiqilgan [16]. Bunday usul nafaqat kulolchilikda, balki, mato to‘qish, kashtachilikda ham keng qo‘llanib kelingan [17:98]. Bunday usul Turon hududida qadimdan qo‘llanib kelingan va devoriy suratlarda ushbu bezak na‘munalari aks ettirilgan [18:21]. Demak, shaklli bezaklar ichida doira ko‘plab ma‘nolarni anglatadi va turli ko‘rinishlarda kulolchilik ramzi sifatida saqlanib kelgan. Ayniqsa, ushbu shakl boshqa ramzlar bilan qorishiq tarzda qo‘llanishi bilan ajralib turadi.

*To‘rtburchak* shaklli bezaklar o‘zbek milliy hunarmandchiligida mavjud shakllardan biri hisoblanadi va ko‘pincha majmuaning bir qismi yoki bevosita asosiy chegara sifatida xizmat qiladi. Dunyoning ko‘plab xalqlari tasavvurlarida to‘rtburchak ramz sifatida qo‘llanib keladi. Mazmuniga ko‘ra bu shakl dunyoning tomonlarini, moddiyat yoki yerni anglatgan. Dunyoning tomonlari hisoblangan shimol, janub, g‘arb va sharqni aniq ko‘rsatib turuvchi tarzida, to‘rtburchakning shimoliy tarafi qutb yulduziga qaratilgan holatda aks ettirilgan [19:37]. To‘rtburchak shakli qadimgi davrdan yana maydonni, chegarani [13:43], o‘zgaraslik tamoilini [5:15] anglatgan bo‘lsa, qadimgi xitoyliklarning qarashlarida erkak jinsining ramzi hisoblangan [20:44]. Shuningdek, turarjoylar, to‘qimachilik matolari va boshqa ko‘plab jihozlar ham to‘rtburchak asosga ega bo‘lgan.

Qadimdan o‘zbek madaniyatida qo‘llanib kelgan handasiviy shakllar uyg‘unlik tartibini o‘zida mujassam etgan [1:107]. Ushbu bezak o‘zbek me‘morchiligida bezash maqsadida ko‘p qo‘llangan bo‘lib, binolarga bezak berishda uni uch yoki besh qismga ajratib, ramzlarni chizish usullari 10-yuzyillikdayoq yozib qoldirilgan [21:53]. Demak, ushbu shakl avvalo, Turonda vujudga kelgan fan uyg‘onishi mahsuli

hisoblangan riyoziyot (matematika) ta'sirida o'lchovlarni aniq hisoblash qonuniyatlarini asosida ramz sifatida aks ettirilishi yangi bosqichga ko'tarilgan.

Kulolchilikda to'rtburchak shakli bir necha ko'rinishlarda ramz sifatida qo'llanib kelinadi. Ushbu shakl kichik katakchalardan tortib, katta to'rtburchakli chizgilar tarzida kulolchilik mahsulotlarini bezashda ishlatiladi [22:92]. Handasaviy naqshlar ayniqsa, Rishton kulolchiligida doimo bezak berish ishlarida yetakchi ramzlardan biri hisoblanmagan [23:106]. Bunday belgilar ma'lum bir naqshlarni aks ettirishda chegara yoki turli mazmundagi qorishiq islamiy ramzlarning chegarasi sifatida xizmat qilgan [16]. To'rtburchak shakli Xorazmda boshqa handasaviy ramzlar bilan bir qatorda keng qo'llanib kelgan [22:95].

To'rtburchak ramzi qadimdan Turon aholisi tomonidan binolarning asosi yoki zardushtiylik ostodonlarining shakli to'rtburchak ko'rinishida bo'lgan [24:84]. Sug'd madaniyatida ham to'rtburchak shakli bezaklarning asosini tashkil etgan [24:137]. O'zbek ramzchilik tizimida ham boshqa ko'plab jahon xalqlari kabi dunyoning to'rt tomoni mazmunini anglatgan, shuningdek, tumor shakllaridan biri ham aynan to'rtburchak ko'rinishga ega bo'lgan [1:184]. To'rt taraf yoki to'rt tomonga qarab yo'nalish, yurish qarashlari turkiylarning qadimdan mavjud bo'lgan tasavvurlaridan biri sanaladi [25:110]. To'rtburchak shaklli bezaklar islom dini qaror topganiga qaramay boshqa handasaviy ramzlar qatorida keng qo'llanib kelgan hamda hattotlik bezaklaridan ustun bo'lgan [26:415]. To'rtburchak shakli kulolchilik buyumlarini bezashda asosan, chegara chifati ahamiyat kasb etgan. To'rtburchak shaklli chegara ichiga boshqa shaklli ramzlar tushirilgan.

To'rtburchak shakli kulolchilik bezaklari qatorida turli holatlarda aks ettirilgan. Uning barcha tomonlari teng (kvadrat), yuqori va quyi burchaklari nisbatan kichik (romb) ko'rinishlari ham mavjud bo'lgan. Har bir ko'rinishdagi to'rtburchak ramz o'ziga xos mazmunni anglatgan. Xususan, yuqori va quyi burchaklari nisbatan kichik (romb) ko'rinishli bezak mistosh (eneolit) davridan beri qo'llanib kelingan bo'lib, hosildorlik va serfarzandlikni bildirgan [6:265]. Demak, to'rtburchak shaklli ramz turli holatlarda, ko'rinishlarda qo'llanib, turlicha mazmunni ifodalashga xizmat qilgan.

Turon kulolchiligi bezaklari ichida uchburchak, to'rtburchak (romb ko'rinishida) va doira uzoq vaqt davomida o'zgarishsiz qo'llanib kelingan [8:54].

Handasaviy ramzlar o'zbek kulolchiligida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, ular ichida alohida tushirilgan chiziq [27:12]lardan iborat bezaklar ham shakllangan. Bunday tarzidagi chiziqlar kulolchilik mahsulotlarini bezashda keng qo'llanib kelingan. Farg'ona vodiysi qadimgi davr kulolchilik mahsulotlarida aynan chiziqli bezaklar boshqa ramzlardan ko'ra keng qo'llanilgan [28:161]. Xususan, bunday

chiziqli ramzlar jez davrida (bronza) bezak sifatida sopol buyumlar sirtiga ishlangan na'munalar ko'plab aniqlangan [29:74]. Chiziqli belgilar ma'lum bir mazmuni anglatuvchi chizgi sifatida qoyatosh suratlarda ham aks ettirilgan. Xususan, Amerika hindulari tomonidan ham chiziqli ramzlar qoyatosh suratlarda qo'llanilgan [30:50]. Suratlarda ifodalangan to'g'ri yoki kesishgan chiziqlar ko'pgina xalqlarda ilk yozuvlarning paydo bo'lishiga xizmat qilgan suratli yozuv shakllarining ilk ko'rinishlari hisoblanadi [31:84]. Kulolchilik buyumlarida aks ettirilgan chiziqli ramzlarning alohida tik, kesishgan yoki xochsimon yoki siniq ko'rinishlari uchraydi [32:21]. Ayniqsa, Xumbuztepa va boshqa yodgorliklardan chiziqli ramzlar tushirilgan sopol idishlar topilgan [33:48 – 49]. Demak, ushbu ramzlar keyinchalik yozuvning paydo bo'lishiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Dastlabki vaqtda muayyan ma'noni anglatgan handasaviy chiziqlar, borib-borib suratli yozuvlarning asosi sifatida qo'llangan.

### **XULOSA**

O'zbek xalq an'anaviy hunarmandchiligida shakllangan ramz va belgilarning vujudga kelishi aholining diniy-mifologik qarashlari, turmush tarzi, tabiat hamda tabiat kuchlari bilan bog'liq e'tiqodiy tasavvurlarining mahsulidir. Ular turli mazmun va mohiyat kasb etish bilan birgalikda xalq tarixiga oid ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtiradi. Xususan, turli handasaviy shakllar va ularning o'zgarishlarga uchragan tasvirlari to'qimachilikda hozirgi kunda ham qo'llaniladi. Ayrim belgilar esa o'zgarishlarga uchrab, o'simliksimon ko'rinish yoki handasaviy shaklli naqshlarga aylangan. Bunday o'zgarishlar asosan, islom dini kirib kelgandan so'ng sodir bo'lgan. Shunga qaramay, ushbu belgi va naqshlar saqlanib kelmoqda va turli kulolchilik maktablarida asosiy ramzlar sifatida katta ahamiyatga ega.

Handasaviy ramzlar o'zbek milliy kulolchiligida markaziy ramzlardan biri sifatida qo'llanib kelinmoqda. Bunday ramzlar asosan, buyumlarning shakli va ko'rinishidan kelib chiqib tushiriladi. Shuningdek, ushbu ramzlar madaniy kod sifatida hududiy farqlar va tafovutlarga ega bo'lish bilan bir qatorda saqlovchi kuch sifatidagi qarashlarni – magik himoya vositasi sifatidagi ishonch ko'rinishlarini saqlab kelmoqda. Demak, handasaviy ramzlar chuqur mazmun kas etuvchi, bir necha ming yilliklarda shakllangan o'ziga xos bezaklar hisoblanadi. Turli diniy-g'oyaviy o'zgarishlarga qaramay asrlar osha o'zining asosiy vazifasini ado etib kelmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Гюль Э. Сады небесные и сады земные. Вышивка Узбекистана: скрытый смысл сакральных текстов. – Москва: ИД Марджани, 2013. – с. 208.
2. Исомиддинов М. Сополга битилган тарих. – Тошкент: Фан, 1993. – б. 46.

3. Jung C.G., von Franz M.L., Henderson J.L., Jacobi J., Jaffe A. – New York, London, Toronto, Sydney, Auckland: Anchor Press, Doubleday, 1988. – p. 232.
4. Cirlot J.E. A dictionary of symbols. Second edition. – London: Routledge, 1971. – p. 563.
5. Burckhardt T. Foundations of Oriental Art & Symbolism. – Bloomington, Indiana: World Wisdom, Inc., 2009. – p. 138.
6. Давлатова С. Ўзбек анъанавий хунармандчилиги тарихий жараёнлар контекстида (Ўзбекистоннинг жанубий худудлари мисолида). – Тошкент: Yangi nashr, 2018. – б. 368.
7. Чебодаева М.П. Образ богини Умай (Ымай) в изобразительном и декоративном искусстве Хакасии. – Абакан: Хакасское книжное издательство, 2019. – с. 40.
8. Исамидинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда (проблемы взаимодействия культурных традиций в эпоху раннежелезного века и в период античности). – Ташкент: А. Кадыри, 2002. – с. 256.
9. Наскальное искусство в Центральной Азии. Тематическое исследование. – Paris: ICOMOS, 2011. – с. 381.
10. Раззоков Ф.А. Строительные комплексы древнеземледельческого поселения Саразм в IV – III тыс. до н. э. – Санкт-Петербург: НКТ, 2016. – с. 248.
11. Морозова А.С. Традиционная народная одежда туркмен / Традиционная одежда народов Средней Азии и Казахстана. – Москва: Наука, 1989. – с. 255.
12. Bardzinska-Bonenberg T. Ring-and-circle, symbolical and practical meaning of the form in town planning and architecture / 11th CTV back to the sense of the city: 11th International Congress Virtual City and Territory. – Krakow, 2016. – p. 37 – 49.
13. Frutiger A. Signs and Symbols. Their design and meaning. – New York: Van Nostrand Reinhold, 1989. – p. 360.
14. Умар Хайём. Наврўзнома. – Тошкент: Мехнат, 1990. – б. 79.
15. Cirlot J.E. A dictionary of symbols. Second edition. – London: Routledge, 1971. – p. 563.
16. Дала ёзувлари. Фарғона вилояти, Риштон шаҳри. 2018 йил.
17. Абдуллаева Ш. Ўзбекистоннинг амалий безакли санъати / Ўзбекистон давлат санъат музейи тўплами (Тошкент). – Тошкент: Silk road media, East star media, 2020. – б. 464.
18. Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба. – Ташкент: Фан, 1975. – с. 160.
19. Fletcher R. The square // NEXUS NETWORK JOURNAL – Vol. 7, NO. 2, 2005. – p. 35 – 70.

20. Aili Zhu, Hu Yue. The Symbolic Characteristics of Square and Circle in Fashion Design // *Art and Design Review*. 6. 2018. – p. 43 – 47.
21. Jabbarov R.R. *Amaliy bezak san'ati*. – Toshkent: LESSON PRESS, 2023. – b. 188.
22. Xudoybergenov N. *Xorazm kulolchiligi (etnologik tadqiqot)*. – Toshkent: Lesson Press, 2023. – b. 122.
23. Офицерова Е.В. *Керамика Ферганы в фондах ГМЗ «Царицыно» (Москва). Формирование коллекции, ее особенности / «Туркий халклар хунармандчилиги» анъанавий форуми Риштон кулолчилиги: кеча, бугун, эртага халқаро илмий-амалий конференция материаллари*. – Фарғона, 2023. – б. 140.
24. Хакимов А. *Ўзбекистон санъати тарихи. Қадимги давр, ўрта асрлар, ҳозирги замон*. – Тошкент: Zilol buloq, 2022. – б. 528.
25. Турдимов Ш. *Халқ кўшиқларида рамз*. – Тошкент: Фан, 2020. – б. 192.
26. Алиева С.Ш. *Эстетика исламской поливной керамики Узбекистана // International scientific journal Grail of Science. №5. 2021. – с. 414 – 417.*
27. Исамиддинов М.Х (Хасанов М.Х). *История древнего и средневекового керамического производства Нахшаба*. – Ташкент: А. Кадыри, 2000. – с. 200.
28. Литвинский Б.А. *Керамика из могильников Западной Ферганы*. – Москва: Главная редакция восточной литературы, 1973. – с. 256.
29. Аскарлов А. *Сапаллитепа*. – Ташкент: Фан, 1973. – с. 172.
30. Loring M.J (Loring L). *Pictographs & petroglyphs of the Oregon country. Part I & II. Second edition*. – Los Angeles: University of California, 1996. – p. 305.
31. Evans A.J. *Cretan pictographs and prae-phoenician script*. – London, New York: Bernard Quaritch, G.P. Putnam's Son, 1895. – p. 148.
32. Шайдуллаев Ш (Шайдуллаев А). *Туроннинг энг қадимги ёзув тизими*. – Тошкент: Фан, 2024. – б. 84.
33. Баратов С.Р. *Знаки на керамических изделиях в Древнем Хорезме / Тамги доисламской Центральной Азии*. – Самарканд: МИЦАИ, 2019. – с. 43 – 57.

## REFERENCES

1. Gyul E. *Gardens of Heaven and Gardens of Earth. Embroidery of Uzbekistan: The Hidden Meaning of Sacred Texts*. – Moscow: PH Mardjani, 2013. – p. 208.
2. Isamiddinov M. *The History recorded on pottery*. – Tashkent: Science, 1993. – p. 46.
3. Jung C.G., von Franz M.L., Henderson J.L., Jacobi J., Jaffe A. – New York, London, Toronto, Sydney, Auckland: Anchor Press, Doubleday, 1988. – p. 232.

4. Cirlot J.E. A dictionary of symbols. Second edition. – London: Routledge, 1971. – p. 563.
5. Burckhardt T. Foundations of Oriental Art & Symbolism. – Bloomington, Indiana: World Wisdom, Inc., 2009. – p. 138.
6. Davlatova S. Uzbek traditional crafts in the context of historical processes (on the example of the southern regions of Uzbekistan). – Tashkent: Yangi nashr, 2018. – p. 368.
7. Chebodaeva M.P. The Image of the Goddess Umai (Ymai) in the Fine and Decorative Arts of Khakassia. – Abakan: Khakass Book Publishing House, 2019. – p. 40.
8. Isamiddinov M.Kh. The Origins of the Urban Culture of Samarkand Sogdiana (Problems of Interaction of Cultural Traditions in the Early Iron Age and in Antiquity). – Tashkent: A. Kadyri, 2002. – p. 256.
9. Rock Art in Central Asia. Thematic Study. – Paris: ICOMOS, 2011. – p. 381.
10. Razzokov F.A. Building complexes of the ancient agricultural settlement of Sarazm in the 4th – 3rd millennia BC. – St. Petersburg: NKT, 2016. – p. 248.
11. Morozova A.S. Traditional folk clothing of the Turkmen / Traditional clothing of the peoples of Central Asia and Kazakhstan. – Moscow: Nauka, 1989. – p. 255.
12. Bardzinska-Bonenberg T. Ring-and-circle, symbolical and practical meaning of the form in town planning and architecture / 11th CTV back to the sense of the city: 11th International Congress Virtual City and Territory. – Krakow, 2016. – p. 37 – 49.
13. Frutiger A. Signs and Symbols. Their design and meaning. – New York: Van Nostrand Reinhold, 1989. – p. 360.
14. Omar Khayyam. Navruznom. – Tashkent: Mehnat, 1990. – p. 79.
15. Cirlot J.E. A dictionary of symbols. Second edition. – London: Routledge, 1971. – p. 563.
16. Field notes. Fergana region, Rishton city. 2018.
17. Abdullaeva Sh. Uzbekstening practical art / Uzbekistan state art museum collection (Toshkent). – Toshkent: Silk road media, East star media, 2020. – p. 464.
18. Albaum L.I. Painting by Afrasiab. – Tashkent: Science, 1975. – p. 160.
19. Fletcher R. The square // NEXUS NETWORK JOURNAL – Vol. 7, NO. 2, 2005. – p. 35 – 70.
20. Aili Zhu (Hu Yue),. The Symbolic Characteristics of Square and Circle in Fashion Design // Art and Design Review. 6. 2018. – p. 43 – 47.
21. Jabbarov R.R. Applied decorative art. – Tashkent: Lesson press, 2023. – p. 188.
22. Khudoybergenov H. Khorezm pottery (ethnological research). – Tashkent: Lesson Press, 2023. – p. 122.

23. Ofitserova E.V. Ceramics of Fergana in the funds of GMZ "Tsaritsino" (Moscow). Formation of the collection, its peculiarities / Traditional forum "Turkish folk art" Rishton art: yesterday, today, tomorrow materials of the international scientific-practical conference. – Fargona, 2023. – p. 140.
24. Khakimov A. The history of Art of Uzbekistan. Ancient period, middle ages, contemporary time. – Tashkent: Zilol buloq, 2022. – p. 528.
25. Turdimov Sh. The Symbol of folk songs. – Tashkent: Science, 2020. – p. 192.
26. Alieva S.Sh. Aesthetics of Islamic glazed ceramics of Uzbekistan // International scientific journal Grail of Science. No. 5. 2021. – p. 414 – 417.
27. Isamiddinov M.Kh (Khasanov M.Kh.). History of ancient and medieval ceramic production of Nakhshab. – Tashkent: A. Kadyri, 2000. – p. 200.
28. Litvinsky B.A. Ceramics from the burial grounds of Western Fergana. – Moscow: Main Editorial Board of Eastern Literature, 1973. – p. 256.
29. Askarov A. Sapallitepa. – Tashkent: Science, 1973. – p. 172.
30. Loring M.J., Loring L. Pictographs & petroglyphs of the Oregon country. Part I & II. Second edition. – Los Angeles: University of California, 1996. – p. 305.
31. Evans A.J. Cretan pictographs and prae-phoenician script. – London, New York: Bernard Quaritch, G.P. Putnam's Son, 1895. – p. 148.
32. Shaydullaev Sh (Shaydullaev A). The oldest writing system of Turan. – Tashkent: Science, 2024. – p. 84.
33. Baratov S.R. Signs on ceramic products in Ancient Khorezm / Tamgas of pre-Islamic Central Asia. – Samarkand: IICAS, 2019. – p. 43–57.